

STANDARTLASHTIRISH TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA QAROR QABUL QILISH MEXANIZMLARI

Mirjalol Odinaev

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi

Raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bosh mutaxassisi

E-mail: mirjalolodinayev0109@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimida standart loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni sun'iy intellekt (SI) yondashuvlari orqali bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt vositalarining qaror qabul qilishdagi afzalliklari, ekspertiza jarayonini avtomatlashtirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy mexanizmlar taklif etiladi.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda texnik tartibga solish va standartlashtirish tizimini raqamlashtirish jarayoni izchil davom etmoqda. Bu borada "O'zstandart" agentligi tomonidan bir qator axborot tizimlari joriy etilgan bo'lsa-da, standart loyihalarining ilmiy-texnik ekspertizasini o'tkazish jarayoni hanuz ko'p hollarda inson omiliga bog'liq va subyektiv qarorlar bilan bog'liq bo'lmoqda. Bu esa qaror qabul qilishda kechikishlar, xatoliklar va resurslarning samarasiz ishlatilishiga olib kelmoqda.

Amaldagi muammolar tahlili

Standart loyihalarini ekspertizadan o'tkazishda quyidagi asosiy muammolar kuzatiladi:

- Kadrlar tanqisligi – muayyan soha bo'yicha yuqori malakali ekspertlarning yetishmasligi;
- Subyektivlik – ekspertlar tomonidan beriladigan baholarning bir-biridan farq qilishi;
- Yuqori vaqt sarfi – hujjatlarni qo'lda ko'rib chiqish va solishtirish ko'p vaqt oladi;
- Ma'lumotlar bazasidan foydalanishdagi cheklovlar – ilgari baholangan hujjatlar bilan solishtirish mexanizmlarining yo'qligi;
- O'xshashlik va takrorlanishlar aniqlanmasligi – ilgari qabul qilingan standartlar bilan mosligini avtomatik aniqlash vositalarining yo'qligi.

Sun'iy intellektning imkoniyatlari

Sun'iy intellekt texnologiyalari yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda quyidagi yo'nalishlarda samarali bo'lishi mumkin:

- Matnni avtomatik tahlil qilish – standart loyihasidagi normativ iboralarni, mos keluvchi GOST, ISO va O'zDSt hujjatlariga bog'lash;
- O'xshashlikni aniqlash – ilgari qabul qilingan standartlar bilan textual yoki semantik solishtirish orqali plagiat yoki takrorlash holatlarini aniqlash;
- Baholashda neyron tarmoq modellari – texnik hujjatlarning to'liqligi, aniq formulalarga asoslanganligi yoki normativlarga muvofiqligini AI modellar orqali baholash;
- Reyting asosida qaror qabul qilish – bir nechta variantlar bo'yicha tavsiya beruvchi sun'iy intellekt algoritmlari yordamida ekspert qarorlarini asoslash.

Taklif etilayotgan yondashuv

AI yondashuvlaridan foydalangan holda quyidagi model taklif etiladi:

1. Loyihani yuklash – hujjat PDF yoki DOCX formatida tizimga yuklanadi;
2. AI tahlil – matn morfologik va semantik jihatdan tahlil qilinadi;
3. Muvofiqlik skoringi – tizim hujjatni xalqaro va milliy standartlar bilan solishtiradi va ball beradi;
4. Maslahat – AI-assistent asosida tizim muammoli bandlar va tuzatish takliflarini beradi;
5. Ekspert ishtiroki – yakuniy qaror inson ekspert tomonidan qabul qilinadi, lekin AI tomonidan ishlab chiqilgan tahlillarga tayangan holda.

XULOSA

Standartlashtirish tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish – nafaqat ekspertiza jarayonining tezkorligini oshirish, balki ilmiylik va ob'ektivlik darajasini ham yuqori pog'onaga ko'taradi. O'zbekistonda mavjud axborot tizimlariga AI texnologiyalarini integratsiya qilish orqali xalqaro tajriba asosida zamonaviy ekspertiza muhitini shakllantirish imkoniyati mavjud.